XI-MAVZU. Sertifikatlashtirish bo‘yicha asosiy tushunchalar va sertifikatlashtirishning huquqiy asoslari

REJA:

1. Sertifikatlashtirish bo‘yicha asosiy tushuncha va atamalar.
2. “Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g’risida”gi qonun sharhlari.
3. Sertifikatlashtirishning huquqiy asoslari va milliy tizim.

GLOSSARY (ГЛОССАРИЙ)

O`zbекcha	Ruscha	Inglizcha	Mazmuni
Sertifikatlashtirish	Сертификация	Certification	Mahsulot, xizmat yoki jarayonning belgilangan talab va me’yorlarga muvofiqligini tasdiqlash jarayoni.
Muvofiqlik	Соответствие	Consistency	Obyektning belgilangan standartlar, texnik reglamentlar va boshqa normativ talablarni bajarish holati.
Muvofiqlik sertifikati	Сертификат соответствия	Certificate of Conformity	Mahsulot yoki xizmatning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi rasmiy hujjat.
Muvofiqlik belgisi	Значок соответствия	Eligibility Icon	Mahsulotning belgilangan muvofiqlik talablariga javob berishini ifodalovchi belgi.
Muvofiqlikni baholash	Оценка соответствия	Eligibility Assessment	Mahsulot, xizmat, jarayon yoki tizimning belgilangan talablarga javob berishini aniqlash faoliyati.
Sinov laboratoriyasi	Испытательная лаборатория	Testing laboratory	Mahsulot yoki materiallarning belgilangan ko‘rsatkichlarini sinovdan o‘tkazuvchi vakolatli laboratoriya.

1. Sertifikatlashtirish bo‘yicha asosiy tushuncha va atamalar

• Sertifikatlashtirish mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlash shakllaridan biri sifatida butun dunyoda tan olingan. Sertifikatlashtirish uchun sertifikatlashtirish obyektlari va subyektlariga yagona talablarni belgilagan me'yoriy hujjatlar mavjud bo‘lishi shart.

• Atamalar va ta'riflarning birliligi qo‘yilgan vazifalarni tushunish va sertifikatlashtirish protseduralarini muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun ahamiyatlidir.

• O‘zbekiston Respublikasida xalqaro standart ISO/MEK 2:1996 "Standartlashtirish va yondosh faoliyat turlari. Umumiy lug’at" asosida yaratilgan O‘z DSt 5.5:1999 "O‘z SMT. Asosiy atamalar va ta'riflar" va sifat menejmenti tizimlari bo‘yicha O‘z DSt ISO 9000:2002 amalda qo‘llanilmoqda.

Sertifikatlashtirish deganda, mahsulot (buyum, tovar) yoki xizmat muayyan standartga yoki texnikaviy shartlarga muvofiq kelishini tasdiqlash maqsadida o‘tkaziladigan faoliyat tushunilib, ushbu faoliyat natijasida mahsulot (buyum, tovar)ning sifati haqida iste'molchini ishontiradigan tegishli hujjat - sertifikat beriladi.

• Sertifikatlashtirish deganda, mahsulot (buyum, tovar) yoki xizmat muayyan standartga yoki texnikaviy shartlarga muvofiq kelishini tasdiqlash maqsadida o‘tkaziladigan faoliyat tushunilib, ushbu faoliyat natijasida mahsulot (buyum, tovar)ning sifati haqida iste'molchini ishontiradigan tegishli hujjat - sertifikat beriladi.

• Sertifikatlashtirishning milliy tizimi - davlat miqyosida amal qiladigan sertifikatlashtirish o‘tkazishda o‘z tartib va boshqaruv qoidalariga ega bo‘lgan tizim.

• Muvofiqlik sertifikati - sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat.

• Muvofiqlik belgisi - muayyan mahsulot yoki xizmatning aniq standartga yoki boshqa normativ hujjatga mos ekanligini ko‘rsatish uchun mahsulotga yoki ko‘rsatilgan xizmatga doir hujjatga qo‘yiladigan, belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan belgi.

Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimi – ayni bir xil standartlar va qoidalar qo‘llaniladigan muayyan mahsulotlar, ishlar yoki xizmatlarga taalluqli sertifikatlashtirish tizimi.

• Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimi – ayni bir xil standartlar va qoidalar qo‘llaniladigan muayyan mahsulotlar, ishlar yoki xizmatlarga taalluqli sertifikatlashtirish tizimi.

• Sinov laboratoriyasini akkreditlash – sinov laboratoriyasining (markazining) muayyan mahsulot sinovini yoki muayyan sinov turini amalga oshirishga doir vakolatlarning nufuzli organ tomonidan rasmiy e'tirof qilinishi.

• Sertifikatlashtirish organi – sertifikatlashtirishni o‘tkazuvchi organ.

• Sinash – bu o‘rnatilgan muolajaga muvofiq holda bir yoki bir nechta xarakteristikani aniqlash.

• Sinash laboratoriyasi – sinashlarni o‘tkazadigan laboratoriya.

Akkreditlash tizimi – Akkreditlashni o‘tkazish uchun protseduralar va boshqaruvning o‘z qoidalariga ega bo‘lgan tizim.

• Akkreditlash tizimi – Akkreditlashni o‘tkazish uchun protseduralar va boshqaruvning o‘z qoidalariga ega bo‘lgan tizim.

• Akkreditlash – Protsedura bo‘lib, uning vositasida vakolatli idora shaxs yoki idoraning muayyan ishni bajarish huquqiga ega ekanligini rasmiy tan oladi.

• Akkreditlash bo‘yicha idora – Akkreditlash tizimini boshqaruvchi va akkreditlashni o‘tkazuvchi idora.

• Inspektsiya tekshiruvi – sertifikatlashtirish va akkreditlashda o‘rnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida sertifikatlashtirilgan mahsulot, sifat yoki ishlab chiqarishni boshqarish tizimlari, sertifikatlashtirish bo‘yicha idoralar, sinash laboratoriyalari (markazlari) ning faoliyatini takroriy baholash protsedurasi.

• Sifat – O‘z tafsilotlari majmuining talablarga muvofiqlik darajasi.

• Sifat menejmenti tizimi – Sifatga nisbatan tashkilotga rahbarlik qilish va boshqarish uchun menejment tizimi.

• Sifat sohasidagi siyosat – yuqori rahbariyat tomonidan ifodalangan sifat sohasida tashkilotning umumiy maqsad va faoliyat yo‘nalishi.

Sertifikatlashtirish ikki xil bo‘ladi, bular majburiy va ixtiyoriy.

• Sertifikatlashtirish ikki xil bo‘ladi, bular majburiy va ixtiyoriy.

• Mahsulotni u yoki bu sertifikatlashtirishga oidligi, uning tashqi muhitga, inson salomatligiga ta'siri asosiy mezon hisoblanadi. Ana shuning uchun tashqi

muhitga, inson salomatligiga ta'sir ko‘rsatuvchi mahsulotlar albatta, majburiy sertifikatlashtirishga mansub bo‘ladi, qolgan mahsulotlarning sertifikatlashtirilishi esa ixtiyoriydir.

• Majburiy sertifikatlashtirish deganda, sertifikatlashtirish huquqiga ega bo‘lgan idora tomonidan mahsulot, jarayon, xizmatining standartlardagi majburiy talablarga muvofiqligini tasdiqlash tushuniladi.

• Ixtiyoriy sertifikatlashtirish deganda ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki iste'molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o‘tkaziladigan sertifikatlashtirish tushuniladi.

• Mazkur qonun 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan bo‘lib, 4 ta bob va 23 ta moddadan tashkil topgan.

• Mazkur qonunga quyidagilarga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilgan:

• O‘zR 31.08.2000 y. 125-II-son qonuni,

• O‘zR 25.04.2003 y. 482-II-son qonuni,

• O‘zR 06.04.2006 y. O‘R-31-son qonuni,

• O‘zR 10.10.2006 y. O‘R-59-son qonuni

• 2. “Mahsulot va hizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g’risida”gi qonun shartlari

“Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g’risida”gi qonun sharhlari

• I BOB. UMUMIY QOIDALAR

• 1-modda. Asosiy tushunchalar.

• 2-modda. Sertifikatlashtirishning maqsad va vazifalari.

• 3-modda. Sertifikatlashtirish to‘g’risidagi qonun hujjatlari.

• 4-modda. Xalqaro shartnomalar va bitimlar.

• 5-modda. O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish organlari.

• II BOB. SERTIFIKATLASHTIRISH FAOLIYATIGA DOIR UMUMIY TALABLAR

• 7-modda. Muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik belgisi.

• 8-modda. Sertifikatlashtirish faoliyatini amalga oshirish.

• 9-modda. Sertifikatlashtirish to‘g’risida axborot.

“Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g’risida”gi qonun sharhlari

• III BOB. MAXSULOTLARNI MAJBURIY VA IXTIYORIY SERTIFIKATLASHTIRISH

• 10-modda. Majburiy sertifikatlashtirishni joriy etish

• 11-modda. Majburiy sertifikatlashtirishni o‘tkazish shartlari

• 12-modda. Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo‘lgan maxsulotlargaqo‘yiladigan talablar

• 13-modda. Tayyorlovchilarning (tadbirkorlarning) maxsulotlarni majburiy sertifikatlashtirish vaqtidagi majburiyatlari

• 14-modda. Chetdan olib kelinadigan va chetga olib chiqib ketiladigan ma?sulotlarni majburiy sertifikatlashtirish

• 15-modda. Majburiy sertifikatlashtirish ishlarining davlat tomonidan moliyaviy ta'minoti

• 16-modda. Majburiy sertifikatlashtirishqoidalariga rioya etilishini davlat tomonidan tekshirish va nazoratqilish

• 16-1-modda. Nazorat yo‘sinidagi tekshiruv

• 17-modda. Ihtiyoriy sertifikatlashtirish

• 18-modda. Ihtiyoriy sertifikatlashtirishni amalga oshiruvchi sub'ektlar

• 19-modda. Ihtiyoriy sertifikatlashtirish tizimlari

• IV BOB. NIZOLARNI QARAB CHIQISH. SERTIFIKATLASHTIRISH TO‘GRISIDAGI QONUN

• HUJJATLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

• 20-modda. Mazkur qonunni qo‘llash bilan bog ‘liq nizolarniqarab chiqish

• 21-modda. Shikoyatlarniqarab chiqish

• 22-modda. Sertifikatlashtirish organlarining va sinov laboratoriyalarining (markazlarining) javobgarligi

• 23-modda. Tayyorlovchilarning (tadbirkorlarning) majburiy sertifikatlashtirishqoidalarini buzganlik uchun javobgarligi

• Mahsulotlar (shu jumladan dasturiy va boshqa ilmiy-texnikaviy mahsulotlar), xizmatlar, shuningdek sifat tizimlari sertifikatlashtirish obyektlari hisoblanadi.

• "O‘zstandart" agentligining o‘zi, uning tomonidan akkreditatsiya qilingan yoki e'tirof etilgan sertifikat-lashtirish organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish sohasidagi tekshiruv organlari, sifat bo‘yicha ekspert-auditorlar, shuningdek mahsuloti sertifikatlashtirilishi lozim bo‘lgan korxonalar,

• muassasalar, tashkilotlar, jismoniy shaxslar sertifikatlashtirish subyektlaridir.

• 6-modda. Sertifikatlashtirish obyektlari va subyektlari

9-modda. Sertifikatlashtirish to‘g’risida axborot

• "O‘zstandart" agentligi tayyorlovchilarni (ijrochilarni), sotuvchilarni, iste'molchilarni va boshqa manfaatdor shaxslarni sertifikatlashtirishning amaldagi tizimlari, ularning organlari, sinov laboratoriyalari (markazlari), ekspertlar to‘g’risida, shuningdek muvofiqlik sertifikatlari, muvofiqlik belgilari va ularni qo‘llash qoidalari to‘g’risida xabardor etib boradi.

• Sertifikatlashtirish organlari arizachiga uning talabiga binoan mahsulotni sertifikatlashtirish uchun kerakli axborotni berishlari shart.

• Arizachi sertifikatlashtirish organining talabiga binoan sertifikatlashtirish bilan bog’liq axborotni taqdim etishi shart, tijorat siri hisoblangan ma'lumotlar bundan mustasno

“Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g’risida”gi qonun

• 16-modda. Majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etilishini davlat tomonidan tekshirish va nazorat qilish

• Tayyorlovchilarning (tadbirkorlarning, sotuvchilarning, ijrochilarning) majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etishlari ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini "O‘zstandart" agentligining davlat inspektorlari qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan tartibda amalga oshiradi.

• 17-modda. Ixtiyoriy sertifikatlashtirish

• Har qanday mahsulot normativ hujjatlarning talablariga muvofiq ekanligini tasdiqlash uchun u yuridik va jismoniy shaxsning tashabbusi bilan ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o‘tkazilishi mumkin.

• 18-modda. Ixtiyoriy sertifikatlashtirishni amalga oshiruvchi subyektlar

• Ixtiyoriy sertifikatlashtirishni "O‘zstandart" agentligi belgilab qo‘ygan tartibda akkreditatsiya qilingan yuridik va jismoniy shaxslar amalga oshirishga haqlidir.

3. Sertifikatlashtirishning qonuniy va me'yoriy-huquqiy asoslari va milliy tizimi

• Quyidagilar sertifikatlashtirishning qonuniy va me'yoriy-huquqiy asoslarini tashkil etadi:

• O‘zbekiston Respublikasining “Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g’risida”gi qonuni;

• O‘zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g’risida”gi qonuni;

• O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 12 avgustdagi 409-sonli “Sertifikatlanishi majburiy bo‘lgan mahsulotlar ro‘yxatini, sertifikatlashtirishni o‘tkazish tartibini, O‘zbekiston Respublikasi hududiga xavfsiz ekanini tasdiqlash talab qilinuvchi tovarlarni olib kirish va o‘z hududidan olib chiqishi tartiblarini tasdiqlash haqida”gi qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 3 oktabrdagi 342-sonli “Mahsulot va xizmatlarni standartlashtirish, metrologiyasi va sertifikatlashtirishni takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g’risida”gi qarori;

• O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 3 oktabrdagi 342-sonli “Mahsulot va xizmatlarni standartlashtirish, metrologiyasi va sertifikatlashtirishni takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g’risida”gi qarori;

• O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 dekabrdagi 427-sonli “O‘zbekiston Respublikasiga iste'mol tovarlarini olib kirishni takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni tatbiq etish haqida”gi qarori;

• O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 iyuldagi 318-sonli “Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi qarori;

• O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 5 avgustdagi 373-sonli “Mahsulotlar va xizmatlarning standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish soha-tadbirlari to‘g’risida” qarori;

• Sertifikatlashtirish milliy tizimining asoslanuvchi me'yoriy hujjatlari;

“O‘zstandart” agentligi O‘zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish bo‘yicha milliy organi bo‘lib, amaldagi qonunchilikka binoanquyidagi faoliyatlarni bajaradi:

• sertifikatlashtirish sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi;

• mahsulotlar, ishlar va xizmatlar sertifikatlanishini o‘tkazish bo‘yicha xalqaro me'yorlar va standartlar bilan uyg’unlashgan umumiy qoidalar hamda tartiblarni o‘rnatadi;

• sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha dasturlar loyihalarini ishlab chiqadi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ko‘rib chiqish uchun taqdim etadi;

• Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda sertifikatlashtirishning xalqaro tizimlariga qo‘shilish haqidagi qarorlarni qabul qiladi hamda standartlashtirish natijalarini o‘zaro tan olish hususida kelishuvlar tuzadi;

O‘zga davlatlar bilan o‘zaro munosabatlarda va xalqaro tashkilotlarda sertifikatlashtirish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘radi;

• O‘zga davlatlar bilan o‘zaro munosabatlarda va xalqaro tashkilotlarda sertifikatlashtirish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘radi;

• O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda sertifikatlanishi majburiy bo‘lgan mahsulotlar ro‘yxatini belgilaydi;

• O‘zbekiston Respublikasi sertifikatsiyalashtirish milliy tizimiga rahbarlik qiladi;

• mahsulot, ishlar va xizmatlarni majburiy sertifikatsiyalashtirish xususidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

• Bir xildagi mahsulot sertifikatsion tizimi, sertifikatlangan mahsulot, sifat tizimlari, sifat bo‘yicha ekspert-auditorlar davlat reestrini olib boradi

Tayanch iboralar. *Sertifikatlashtirish, muvofiqlik, muvofiqlikni baholash, muvofiqlik sertifikati, muvofiqlik belgisi, sertifikatlashtirish organi, sinov laboratoriyasi, akkreditatsiya*.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Sertifikatlashtirishning asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Muvofiqlik sertifikati qanday vazifani bajaradi?
3. Majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish o‘rtasidagi farq nimada?
4. Muvofiqlikni baholash deganda nima tushuniladi?
5. Sertifikatlashtirish organining asosiy vazifalarini sanab bering?

ASOSIY XULOSALAR:

1. Sertifikatlashtirish mahsulot, xizmat va jarayonlarning belgilangan talablar va me’yorlarga muvofiqligini tasdiqlashning muhim vositasidir.

2. Sertifikatlashtirishning asosiy maqsadi iste’molchilar huquqlarini himoya qilish, mahsulot xavfsizligi va sifatini ta’minlash hamda bozorda ishonchni oshirishdan iborat.

3. Muvofiqlikni baholash jarayonida mahsulotning texnik reglamentlar, standartlar va boshqa belgilangan talablarga javob berishi aniqlanadi.

4. Sertifikatlashtirish majburiy yoki ixtiyoriy shaklda amalga oshirilishi mumkin. Ularning qo‘llanish sohasi tegishli qonunchilik va normativ talablar bilan belgilanadi..

Mustaqil ish mavzulari

1. Normativ xujjatlarning ekspertizasi.
2. Sifat menejmenti tizimini joriy etish.
3. Xalqaro, xududiy, davlatlararo, xorijiy normativ xujjatlarni qo‘llanilishi.

Informatsion-metodik ta’minot:

1. С. Турсунов, З. Муқимов, А. Назаров “Стандартлаштириш метрология ва сертификатлаш асослари” Дарслик . 2021.355-б.

2. O Parpiev M.P., Nazarov A.M. Standartlashtirish asoslari. O‘quv qo‘llanma:– Toshkent: 2022 y, 109 b.

3. A.M. Nazarov. Qishloq xo‘jaligida metrologik ta'minot. O‘quv qo‘llanma.2022 y. 186 b.

4. K.K.Nuriyev. Standartlashtirish, o‘zaro almashinuvchanlik, metrologiya, va sertifikatlashtirish asoslari. Darslik:– Guliston: Ziyo nashr-matbaa, 2023 y, 533 b.

5. S.S.Tuxtamishev. Metrologiya,standartlashtirish va sertifikatlash asoslari. O‘quv qo‘llanma:– Toshkent: NIF MISH, 2024 y, 176 b.

O‘Z-O‘ZINI NAZORAT ETISH TESTLARI:

Test namunalari

1. Sertifikatlashtirishning asosiy maqsadi nima?

A. Mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash

V. Ishlab chiqarish hajmini kamaytirish

B. Mahsulot narxini oshirish

G. Mahsulot dizaynini o‘zgartirish

2. Muvofiqlik sertifikati nimani tasdiqlaydi?

A. Mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini

V. Ishlab chiqaruvchining ish stajini

B. Mahsulotning narxini

G. Ishlab chiqaruvchining ish stajini

3. Akkreditatsiya nima?

A. Muvofiqlikni baholash organi yoki laboratoriyaning vakolatliligini rasmiy tan olish

V. Mahsulotni omborga joylashtirish jarayoni

B. Korxonani reklama qilish jarayoni

G. Mahsulotni qadoqlash jarayon

4. Ixtiyoriy sertifikatlashtirish qanday amalga oshiriladi?

A. Ishlab chiqaruvchi yoki manfaatdor tomon tashabbusi bilan

V. Faqat import mahsulotlariga nisbatan

B. aqat davlat organining topshirig‘i bilan

G. Faqat eksport mahsulotlariga nisbatan